

## FUNDUK (CORYLUS) – O’SIMLIGINING BIOLOGIYASI, XUSUSIYATLARI VA KO’PAYTIRISH USULLARI

**Xolmatova Dilafroz Murodjonovna**

Andijon qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti

O’rmonchilik yo’nalishi magistri

**Annotatsiya:** Fundukning ahamiyatli tomonlari juda ko’p hisoblanadi. Funduk vitaminlar, minerallar va boshqa foydali moddalarning koni hisoblanadi. Ular sog’lom ovqatlanish, an’anaviy tibbiyot, kosmetologiya va farmasevtikada qo’llaniladi. Ushbu yong’oqning yog’i juda ko’p foydali xususiyatlarga ega, chunki uning tarkibida E, B, PP, C vitaminlari, oqsillar, aminokislotalar va minerallar mavjud.

**Kalit so’zlar:** ko’chat, urug’, ildiz, po’stloq, yong’oq, suv, sharoit, o’simlik, daraxt, tuproq, ildiz bachki, parhesh.

**Аннотация:** Есть много важных аспектов фундука. Фундук- это кладезь витаминов, минералов и других питательных веществ. Они используются в здоровом питании, народной медицине, косметологии и фармацевтике. Масло этого ореха обладает многими полезными свойствами, так как содержит витамины E, B, PP, C, белки, аминокислоты и минеральные вещества.

**Ключевые слова:** рассада, семена, корни, кора, орехи, вода, условия, растение, дерево, почва, корневые бачки, паркеша

**Annotation:** There are many important aspects of funduk. Funduk is a deposit of vitamins, minerals and other nutrients. They are used in healthy eating, traditional medicine, cosmetology and pharmaceuticals. The oil of this nut has many beneficial properties, as it contains vitamins E,B,PP,C . proteins, amino acids and minerals.

**Keywords:** seedling, seeds, roots, bark, nuts, water, conditions, plant, tree, soil, root cups, parquesh

Funduk – qayindoshlarga mansub buta yoki daraxt. O'rmon yong'ogi'ning mevali turi bo'lib, Janubiy Yevropa va Osiyoda tarqalgan. O'rta va Janubiy Yevropa, Turkiya, AQSH, Kavkaz, Qrim va boshqa joylarda o'stiriladi. Bo'yi 3-10 m, bir uyli, guli ayrim jinsli, changchisi kuchalasimon to'pgulga, urg'ochisi yakka- yakka yoki 2-3 tadan yig'ilgan. Sentabr va oktabr oylarida pishadi, mevasi yirik, cho'zinchoq, po'sti yupqa. Mag'zi tarkibida 52-71 % yog', 12-18% oqsil va 3-10 % uglevod bor. Funduk mag'zi qovurilgan yoki xom holatda iste'mol qilinadi, qandolatchilik sanoatida ishlatiladi, yog, olinadi. Funduk urug'idan, parhish, ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Ko'chatlari 8x6 yoki 8x10 m sxemada ekiladi. Ko'chati o'tqazilgach 4-6-yili hosilga kiradi. Hosildorligi 10-30 s/ga.

Fundukning bog' shakli, to'q yashil barglari va yong'oqlari bo'lgan, balandligi 3 m gacha bo'lgan ixcham buta o'simlikdir. Asosan bizning mamlakatda shahar atrofi hududida manzarali o'simlik sifatida tarqalgan. U hatto shimoliy kengliklarda ham o'stiriladi, chunki ba'zi turlari -50 C gacha haroratga bardosh beradi. Funduk 4-6 yil ichida meva bera boshlaydi. Seleksioner olimlar fundukning ko'plab navlarini yetishtirishgan. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega- mevalarining hajmi va ta'mi, meva berish davri, ma'lum kasalliklarga chidamliligi.

O'simlikning quyidagi turlari bor:

**Erta Trebizond-** uzun bo'yli butalardan hosil yig'ish iyul oyining oxiriga to'g'ri keladi. Yong'oqlari – katta, oval, oldingi qismi biroz uchli. Mevasining po'sti yupqaligi bilan ajralib turadi.

**Kosford-** yong'og'I avgust oyining o'rtalaridan boshlab daraxtdan yig'ib olinadi. Mevalari katta, cho'zinchoq shaklda. Xilma-xilligi shundan iboratki, u keng tarqalgan kasalliklar va zararkurandalarga chidamli.

**Varshava qizil-** qizil bo'lgan barglari buta sharsimon shakl hosil qiladi. Ushbu turdan asosan bog'bonlar hosildorligi bilan bir qatorda uning manzaraliligini ham inobatga olib ko'paytiradilar.

**Bodom shaklidagi turi-** g'ayrioddiy ta'mi tufayli o'z nomini olgan- urug'lari bodom ta'miga ega. Mevalari o'rtacha kattalikda, ingichka qobiq bilan qoplangan. O'sish sharoitiga qarab daraxtlar yuqori hosil beradi.

**Barselona-** O'simlik zich, juda bargi ko'p. Qulay sharoitda u 5 m gacha o'sishi mumkin. Ushbu o'simlikning funduklari sovuqqa chidamli hisoblanadi. Yong'oqlari – juda katta, biroz silliq. Meva markazlari – mazali, suvli, nozik qobiq bilan qoplangan. Barselona turning asosiy kamchiliklari monilozga nisbatan zaifligi.

**Rim-** sara katta yong'oq bilan mashxur, ular avgust oyiga qadar pishadi. O'simlik zararkuranda va kasalliklarga chidamli.

**Galle-** daraxti zich bargli hisoblanadi. Yong'oqlari konus shaklida, katta, qalin qobiqli. Ushbu funduk navi janubiy mintaqalarida yetishtirish uchun ko'proq mos keladi, chunki mevalari sentabr oyining oxirida pishib yetiladi. Galle barcha turlarning eng mashxuri hisoblanadi.

Fundukni qayerda o'stirish mumkin- degan savol tug'iladi. Funduk o'rmon o'simligi bo'lgani uchun issiq, quyoshli, kuchli shamollardan himoyalangan hududlarda o'stiriladi. O'simlikning ekish oralig'ini kengroq bo'lishi talab etiladi. Sababi oralig'I yaqin bo'lsa ildiz tizimida ozuqa moddalari yetishmay qoladi. Funduk tez-tez suv bosadigan yerni yoqtirmaydi. Uni bahorda ko'p namlik yig'ilmaydigan joyda saqlash kerak. Yer sathi suvlari yer sathidan 1,5 m dan oshmasligi kerak. Funduk o'simligi tuproq tanlamaydi, faqatgina ekishdan oldin yerni yaxshi tayyorlasangiz, hosilingiz yuqori bo'ladi. Ushbu o'simliklar –qumli, yuqori darajada kislotali va botqoq yerlarni yoqtirmaydi. Agar yer kislotali tuproq bo'lsa, yerlarni ohak bilan davolash kerak. Buning uchun  $1m^2$  uchun 500 g miqdorda ohak solish zarur. Bu jarayonni o'simlikni ekishdan bir yil oldin qilish kerak, aks holda yosh nihol ildiz otmaydi. Ko'chatlarning yaxshi rivojlanishi uchun yerning yuqori qatlamlarini o'g'itlash zarur. O'g'itlash uchun 50 g kaliy tuzi va 200 g superfosfat solinadi.

Funduk ekish uchun eng yaxshi vaqt oktabr oyining boshi hisoblanadi. Daraxtda tinim davri qisqa bo'lganligi sababli, bahorda ko'plab ko'chatlar ildiz otmaydi. Agar

ushbu davrni o'tkazib yuborgan bo'lsangiz, mart-aprel oylarida bahorgi ko'chat o'tqazish davrini kuting.

Funduk ekilganidan so'ng to'g'ri parvarish qilishni ta'minlash zarur. Funduklar botqoqlarni yoqtirmasligiga qaramay, bu mo'l-ko'l sug'orishga yaxshi javob beradi. Bu ayniqsa quruq yozda juda muhimdir – agar suv yetishmasa o'simlik nobud bo'ladi. Ob-havoga qarab oyiga 1-2 marta sug'orib turiladi. Bundan tashqari o'g'itlab boorish zarur. Asosan organik o'g'itlardan foydalanish bilan bir qatorda, kaliy va fosforga muhtoj bo'ladi. Meva davrida, ildiz atrofiga 1-2 chelak chirindi qo'shish zarur. Yosh ko'chat atrofini ishlov berish jarayonida chuqur ishlov bermaslik kerak. Qish faslida yosh novdalarni o'rab himoya qilinadi. O'simlik mevasini esa qo'l bilan terish maqsadga muvofiqdir.

Funduk o'simligining tarqalishi 3 xil usulda ko'payadi. Urug'lar orqali- urug'larini ko'paytirish qiyin masala. Urug'larini bahorda va kuzda ekish mumkin. Kuzgi ekish payti sentabrning oxiri mevalarni 4-6 sm chuqurlikka qadaladi. Bahorda esa urug'larni ekishdan oldin iliq joyda saqlash kerak. Xona harorati 18-22 C bo'lishi zarur. Va urug'larni stratifikatsiya qilinib may oylarida yerga qadaladi.

Parhesh usulida esa sog'lom novdani egib, sayoz yerlarga joylashtiriladi. Yosh novda ildiz otgandan keyin 1 yilgacha asosiy daraxtdan ajratilmagan holda o'stiriladi.

Ildiz bachkilar orqali- yoyilib ketgan ildizlardan kurtaklar paydo bo'ladi va ona daraxtdan ajratib olinadi. Ushbu usul eng oson usul hisoblanadi.

Funduk o'simligini turli xil zararkurandalar va kasalliklarga chidamli hisoblanadi. Kasalliklarning paydo bo'lishining asosiy sababi- qurg'oqchilik, suv bosgan tuproq hisobiga zamburug' kasalligi kelib chiqadi. Zamburug' bilan kasallangan funduk o'simligining barglarida kukunli chirish belgilari paydo bo'ladi. Agar barglarda shunday holat kuzatilsa, o'simlikning shikastlangan qismini olib tashlanadi va yoqib yuboriladi. Ohak va oltingugurtning 2 % li eritmasini 10 kunda bir dorilab boriladi.

Fundukning ahamiyatli tomonlari juda ko'p hisoblanadi. Funduk vitaminlar, minerallar va boshqa foydali moddalarning koni hisoblanadi. Ular sog'lom ovqatlanish, an'anaviy tibbiyot, kosmetologiya va farmasevtikada qo'llaniladi. Ushbu



yong'oqning yog'I juda ko'p foydali xususiyatlarga ega, chunki uning tarkibida E,B,PP,C vitaminlari, oqsillar, aminokislotalar va minerallar mavjud.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Арахис и фундук посадка уход обор урожая Сергей Холодный изд Лотос 2018
2. Константин Юрий «Орехи- целители Грецкие кедровые кешью фундук кокос арахис...» изд Центр полиграф 2016
3. В.Г.Пахно Ю.И.Паутов «Фундук» изд Днепр 2019
4. Р.С.Верник «Ореховы леса Узбекистана»
5. Е.Т.Стрела «Орех грецкий»

